



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ZIGMUND FREYD  
(1856-1939)

Mening dunyom befarqlik  
ummonida suzib yuruvchi  
kichik og'riq oroli!

2022

MAY  
№40



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.



+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00



[www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz)

[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
3-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-3**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-3**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 40-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 22 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохода Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги хузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛANIШЛАР**

|   |    |
|---|----|
| <b>1. Каримова Мақсада</b>  |    |
| ХОРАЗМ ХОНЛИГИДА ҚИШЛОҚ ҲАЁТИ.....  | 7  |
| <b>2. Jahongir Ergashev</b>   |    |
| NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI TARIXIDAN .....  | 9  |
| <b>3. Ro'zimov Asror</b>  |    |
| VIII-X ASR OXIRLARIDA XORAZMDA SIYOSIY, IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOT .....  | 11 |
| <b>4. Toyirova Dilnoza</b>  |    |
| AMIR TEMUR DAVLATIDA BOSHQARUV TIZIMI .....   | 12 |
| <b>5. Опаев Баймурат</b>  |    |
| ҚЎНФИРОТ ШАҲРИДАГИ АЛЛАНИЯЗ ҚОЗИ ҚОЗИХОНАСИ ТАРИХИДАН .....   | 14 |
| <b>6. Qirg'izova Tursinoy</b>   |    |
| UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMI TARIX DARSLARIDA O'QUVCHILARNING TAFAKKURINI<br>O'STIRISH VA ULARDA MALAKA HAMDA KO'NIKMALAR HOSIL QILISH<br>USULLARI..... | 16 |
| <b>7. Raximboyeva Gulxumor Rustamovna, Iskandarova Nilufar Rustamovna</b>   |    |
| YOSHLAR ONGIGA BOY MEROSIMIZ HAQIDA SINGDIRISH, HAMDA ULARNI<br>AVAYLAB – ASRASHNI O'RGATIB BORISH.....   | 18 |
| <b>8. Xolmatova Sevara Abduqahhorovna, Yo'ldashev Muhriddin</b>   |    |
| ME'MORCHILIK TURLARI, QARSHI ME'MORCHILIGINI O'ZIGA XOS<br>XUSUSIYATLARI .....  | 20 |



## ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

### ХОРАЗМ ХОНЛИГИДА ҚИШЛОҚ ҲАЁТИ

**Каримова Мақсуда**

“Ичан-Қалъа” давлат музей-қўрқхонаси  
Хоразм Табиати бўлими илмий ходими  
Телефон:+998990162580

**АННОТАЦИЯ:** Мазкур мақола Хоразм табиати экспозициясидаги акс қилдирилган XIX аср оҳири XX аср бошларида Хоразм воҳасида етиштирилган дехқончилик, боғдорчилик, пиллачилик, ипак, дон, пахта маҳсулотларини савдо—сотик тарихига оид манбаларни ёритиб беради.

**КАЛИТ СЎЗЛАР:** “Ичан-Қалъа” Давлат музей-қўриқхонаси, Хоразм табиати экспозицияси, буғдой, арпа, сули, шоли, жўҳори, шафтоли, олма, нок, ўрик, анор, қовун тарвуз, пахта, Упланд .

Хоразм воҳаси табиати ўзига хослиги билан ажralиб туради. Хоразм воҳасининг бой табиатини яъни ҳайвонот ва ўсимлик дунёсини ёш авлодга кўрсатиш, уларни сақлаш, авайлаш, асраш ҳар бир фуқоронинг бурчидир.

“Ичан-Қалъа” Давлат музей-қўриқхонасининг Хоразм табиати экспозицияси нафақат Хоразм воҳасида яшовчи ўсимлик ва ҳайвонат дунёси балки Хоразм хонлигига яшовчи аҳоли дехқончилик (буғдой, арпа, сули, шоли, жўҳори ва х.), боғдорчилик (шафтоли, олма, нок, ўрик, анор, қовун тарвуз ва х.), пиллачилик, савдо—сотик (уй ҳайвонлари, ипак, дон, пахта); кўчманчилар (қозоқ, туркман, қорақолпоқ) чорвачилик (туячилик, қўйчилик, аргумоқ отлар етиштириш ва х.) билан шуғулланганлигини кўрсатиб беради.

XIX аср оҳири ва XX аср бошида хонликдаги экин майдонларининг аксариятини дон экинлари, биринчи навбатда жўҳори эгаллаган. Пахта етиштиришга эса эътибор Россия империяси истилосидан кейин сезирларли даражада қаратила бошланди. Аммо хонликда азалдан экилиб келинаётган пахтанинг “тўза” деб номланган Миср навидан олинган ҳом—ашё Россия тўқимачилик корхоналари дастгоҳларига тўғри келмади. Шу даврда Туркистон ўлкасида Жанубий Америкадан келтирилган пахтанинг “Сиайленд” навини тажриба тариқасида экиш бошланганди. Янги навнинг ҳосил тўплаш даври узун бўлиб, 1880 йилда у Мексикадан келтирилган тезпишар “Упланд” пахта нави билан алмаштирилди. 1885 йилда Дюков фирмаси Хоразм хони девонбегиси ажратган ерга 10 пуд америка пахтаси уруғини экди ва ундан 150 пуд соф пахта толаси олди. Хоразм хонлиги ерларига 1901 йилдан бошлаб Упланд” “пахта нави кенг кўламда экила бошланди.

XIX аср охирларида Хоразм хонлигидаги суғориладиган ер майдони 1 млн. танобдан зиёд бўлган. Хонликда давлат (подшолик) ерлари, ҳусусий кишиларга қарашли мулк (атойи ва ёрлиқли) ҳамда диний муассасаларга берилган вакф ер эгалиги мавжуд эди. Энг унумдор ва суғорилиши қулай ерлар хон ва унинг яқинлари, бойлар, амалдорлар, диндорларга тегишли эди. Хоннинг ерлари “атойи мулк” ва “ёрлиқли мулк” деб аталган ҳамда авлоддан—авлодга мерос бўлиб ёки ёрлиқ билан берилган. Хон ўз ерларини мулкдорларга ва ижарави дехқонлар (батрак, мардикор, коранда, беватан,) га фойдаланиш учун маълум муддатга берарди. Хонликда диний муассасалар, масжид, мадраса, қабристон ва муқаддас жойларга хон, амалдорларга ажратилган вакф ерлар мавжуд эди. Улардан солиқ деярлик олинмас ва ерсиз, от-увовсиз дехқонлар ишлатилиб, даромад килинади.

Ер майдонлари ҳажмига қараб қишлоқда яшайтган мулкдорлар аъло, авсат ва адно деган гурухларга ажратилган. Солиқ солишда 10 танобдан ортиқ ерга эга бўлган “аъло” мулк эгалари йилига 3 тилла, 10 танобгача ери бўлган “авсат” мулки эгаларига 2 тилла ва 5 танобгача ери бўлган “адно” мулки эгаларига 1 тилла тўлаш мажбурияти юкланган.



Ижарачилар 15 таноб ердан 34 танга, 10 таноб учун — 22,6 ва ниҳоят 5 танобгача ер учун — 11,3 танга миқдорида солиқ тўлаганлар [1]. Ўтроқ ва чорвадор аҳолиси хирож (ер солиги) ва закот (чорва-мол) солиги тўлашга мажбур эдилар. Бундан ташқари, жузъя (жон бошига), савдо солиги (тамға), боғ солиги (танабана) каби соликлар бўлган. Аҳоли қазув, бегар, қочув, отланув, бож пули, тарози ҳақи, миробона, дарбозабон, мир туман ҳақи каби қўшимча солик ва мажбуриятларни ҳам бажаарди. Хон оиласи ва унинг қариндошлари, оқсоқоллар, беклар, диндорлар, сипохилар, амалдорлар, сарбозлар, навкарлар, юзбошилар, 13 ёшга етмаган ва васийлари бўлмаган етимлар соликлардан озод этилганлар.

Хонликда яшовчи дехқонларнинг меҳнати саноат ишчилариники каби жуда оғир бўлиб, асосий ишларни қўл кучи, хўқиз, от, эшак ва туялар ёрдамида бажаардилар. 1909 йилги маълумотларга қараганда хонликдаги жами экин майдонлари — 226983 десятинани ташкил қилган бўлиб, шундан буғдой экиладиган майдонлар — 53579 десятина (24,3 %), тарик — 8470 десятина (10,6%), жўхори — 31884 десятина (14,3%), мош — 5526 десятина (2,8%), қовун — 13099 десятина (5,9%), арпа — 5959 десятина (2,7%), беда — 35277 десятина (15,9%), пахта — 34775 десятина (15,8%) ва бошқа экинлар 9081 десятина майдонларни (3,9%) эгаллаган. Хоразм дехқонлари азалдан дон экинлари қаторида буғдой, арпа, айниқса оқ жўхори экишга кўпроқ эътибор берадилар. Шу билан бир қаторда сабзавот ва полиз экинлари, чорва учун учун ўт, ем-ҳашакларни кўпроқ етиштиришга харакат қилардилар.

Пахта хом-ашёсининг баҳоси буғдой ва бошқа турдаги дон маҳсулотларига қараганда деярлик 2 марта юқори бўлсада, хонликдаги барча сугориладиган ер майдонларининг факат 16,3 фоизини пахта эгаллаб турарди, холос. Айrim тадқиқчиларнинг архив ҳужжатларига таянган ҳолда кўрсатишича, 1900–1916 йиллар орасида Хива хонлигига пахта етиштириш 21 марта ўсган. 1916 йилда хонликда 60 минг таноб ерга пахта экилган бўлиб, ундан 86400 пуд пахта хом-ашёси олинган ва ҳосилдорлик 11 центнерни ташкил қилган[2].

Хоразм хонлигига етиштирилган ва дастлабки ишлов берилган пахта толасининг кўп қисми Россияга жўнатилган ҳамда унинг ҳажми тинимсиз ортиб борган. Агар 1883 йилда Хоразм хонлигидан Россияга 300 минг пуд пахта олиб кетилган бўлса, 1909 йилда 600 минг пуд, 1910 йилда 700 минг пуд ва 1913 йилда 735 минг пуд “амиркони” навли ва 100 минг пуд маҳаллий “ғўза” навли пахта толаси олиб кетилган [3].

1887-1896 йилларда ҳар йили хонликдан 178 минг пуд пахта чиқарилган бўлса, 1906-1916 йилларда ўртacha 767 минг пудга етган[4]. Пахта хом-ашёси билан савдо қилиш натижасида айrim хиваликлар жуда катта бойлик орттиришга муваффак бўлишган. Натижада улар ҳам завод-фабрикалар куришга, судхўрлик билан олди—сотди муомаласини кенгайтиришга харакат қилганлар. Ҳусусан, 1904 йилда Россияга сотилган пахтадан хиваликлар 4 млн. сўм даромад қилгандилар[5]. Маҳаллий бойлар орасида Ю.Салимжонов, Д.Ж.Нуров, Ж.Иброҳимов, А.Аллаберганов, Э.Дўсчанов, В.Ботиров, К.Юсупов, Х.Авазжанов, Матвафо ва Матсафо Баққоловлар, Атабаев, Мадиёров, Ризаев кабилар бўлганди. Улар Россияга пахта хом-ашёсидан ташқари беда уруғи, қоракўл тери, чит, ипак, кўрпалар, пахтадан ва ипакдан бўлган чопонлар, қовун ва қоқ мевалар ва кўплаб бошқа молларни ҳам чиқариб турганлар[6].

#### Фойдаланилган адабиётлар.

1. Йўлдошев М. Хива хонлигига феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши, 76, 98–бет.
2. Лобачевский В. Хивинский район. — Т., 1912. — 74–бет.
3. Худойберганов М. Хоразм пахта тозалаш саноати тарихи. — 14–бет.
4. Тўхтаметов Т.Г. Россия и Хива в конце XIX — начале XX века. — М., 1969. — 104–бет.
5. История Узбекской ССР. В 2-томах. Т. 1. — Т.: Госиздат, 1956. — С. 323.
6. Садыков А. Экономические связи Хивы с Россией. — С. 28.



NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI TARIXIDAN

Jahongir Ergashev

NamDU, 70220301 – tarix (yo’nalishlar va faoliyat turi bo’yicha) magistratura mutaxassisligi talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Namangan davlat universiteti tashkil etilish tarixi va bugungi kunga qadar faoliyati xaqida ma’lumot berilgan.

**Kalit so’zlar:** Andijon o’qituvchilar instituti, filial, Namangan o’qituvchilar instituti, Namangan davlat pedagogika instituti, mustaqillik, Namangan davlat universiteti, yo’nalishlar, kafedralar.

Bugungi kunda respublikamizda yildan-yilga ta’lim tizimiga, xususan, oliy ta’lim tizimiga katta e’tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda yurtimizda 130 dan ortiq oliy ta’lim muasasalari faoliyat yuritmoqda. Jumladan, Namangan viloytida bugungi kunda 3 ta davlat hamda 1 ta xususiy OTM lar faoliyat yuritmoqda. Kelgusi 5 yilda Namanganda esa 7 ta oliygoh o‘z eshiklarini ochilishi rejalashtirilgan.

Respublikamizdagи o’ziga xos mavqega ega bo’lgan oliy ta’lim dargohlaridan biri – Namangan davlat universiteti hisoblandi.

1941-yil 6-martda Namangan viloyati tashkil etili shi munosabati bilan xalq maorifi tarmoqlarini kengaytirish, ularni malakali pedagog kadrlar bilan mustahkamlash eng muhim masalalardan biriga aylandi. Respublika hukumati umumta’lim maktablarini o’qituvchi kadrlar bilai ta`minlashga alohida ahamiyat berib, Namanganda muallimlar tayyorlaydigan oliygoh ochishga qaror qildi.

Namangan markazidagi 5-maktab binosida 1942-yili Andijon o’qituvchilar institutining shaxobcha-tarmog’i Namangan muallimlar tayyorlash oliygohi tashkil etildi. Dastlab o’zbek tili va adabiyoti hamda fizika-matematika bo’limlari ochilib, unda 74 nafar talaba ta’lim ola boshlaydi. 1944-yildan ana shu tarmoq mustaqil Namangan o’qituvchilar institutiga aylantirildi. 1945 – 1946-o’quv yilidan boshlab institutda talabalar va muallimlar soni orta boshladi. O’sha yili beshta mustaqil kafedra tashkil etilib, jami unda 19 nafar o’qituvchi faoliyat olib boradi. Dastlab tashkil etilgan 3 ta fakul’tet – fizika-matematika, o’zbek tili va adabiyoti, rus tili va adabiyoti fakultetlarida 1945 – 1946-o’quv yilida jami 227 nafar talaba tahsil oldi.

Namangan o’qituvchilar instituti O’zbekiston hukumatining qarori va Maorif Vazirligining 1955-yil 17-maydagi buyrug’iga asosan 1955 – 1956-o’quv yilidan boshlab Namangan davlat pedagogika institutiga aylantirildi. Namangan o’qituvchilar instituti pedagogika institutiga aylantirilgach, 1959-yilgacha bo’lgan davrda institutda ilmiy darajaga ega bo’lgan o’qituvchilar soni 8 kishiga yetdi.

1959 – 1960-o’quv yiliga kelib institutda beshta fakultet va ularda 8 ta kafedra bo’lib, 62 nafar professor-o’qituvchi ishladi. 1962 – 1963-o’quv yilida universitetning hozirgi markaziy ma’muriy binosi qurib foydalanishga topshirilishi, unda 600 nafar talabaning bilim olish imkoniyatini yaratdi. 1965 – 1966-o’quv yilidan boshlab 400 o’rinli talabalar turar joyi qurib bitkazilib, talabalar ixtiyoriga berildi.

Barcha O’zbekistondagi oliy o’quv yurtlari qatori Namangan oliy dargohining ham taraqqiyoti O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1992-yil 28-fevraldagи Farmoniga muvofiq Namangan pedagogika instituti negizida Namangan davlat dorilfununing tashkil etilganligi bilan chambarchas bog’liq bo’ldi.

Hozirgi kunda Namangan davlat universitetida, 2021/2022-o’quv yilida universitetda 16 ta fakultet, 46 ta kafedrada 714 nafar professor-o’qituvchilar faoliyat yuritishmoqda.

Universitetda 57 ta bakalavriat ta’lim yo’nalishi, 31 ta magistratura mutaxassisligi va 3 ta qo’shma ta’lim dasturi asosida (11 ta yo’nalish) kadrlar tayyorlanmoqda. Mazkur o’quv yilida bakalavriat yo’nalishi kunduzgi 13951 nafar, kechki 2928 nafar, sirtqi 8732 nafar, 2-mutaxassislik kunduzgi 48 nafar, 2-mutaxassislik sirtqi 873 nafar, magistratura yo’nalishida 1704 nafar, jami 27315 nafar talabalar ta’lim olmoqdalar.

Namangan davlat universitetida yakuniy nazorat hamda yakuniy davlat attestatsiyalarini adolatli va shaffof o’tishini ta’minlash maqsadida 2018/2019-o’quv yilidan ushbu nazoratlarni onlayn tartibda olish joriy etilgan.

Shuningdek, “Talabaning o’zlashtirishi – professor-o’qituvchilar faoliyatini baholashning asosiy mezoni” tamoyilini joriy etildi.



Professor-o‘qituvchilarning shaxsiy ish rejalarini ishlab chiqish va nazorat qilishning optimal mexanizmini ishlab chiqildi.

Universitet Kengashining 2019-yil 27-avgustdagи 1-sonli majlisida har semestrda talabalar o‘rtasida sotsiologik so‘rovnomalarni o‘tkazish rejalashtirilib, universitet jamoatchilik kenagashi tomonidan umumlashtirilib, kengash majlislarida muhokoma qilib borish belgilab berilgan.

Namangan davlat universitetining 1, 2, 3, 4-kurs bakalavriyat yo‘nalishlarida 1349 ta, magistratura mutaxassisliklarida 171 ta ishchi fan dasturlari, malaka, tanishuv, ishlab chiqarish, pedagogik amaliyotlar bo‘yicha 295 ta ishchi fan dasturlari ishlab chiqilgan.

Dasturlar tarkibi bir xilligini ta’minlandi, keraksiz tarkibiy qismlar chiqarildi, fan dasturlarini rasmiylashtirish soddallashtirildi. Fan dasturlariga o‘qituvchilar tomonidan o‘tiladigan mavzular bo‘yicha savollar ro‘yxati hamda barcha fan dasturlariga baholash me’zonlari kiritildi. Dasturlarni namunaviy dasturlarga mosligi tahlil qilish uchun ekspert komissiyasi tuzildi va jarayon nazoratga olindi.

Universitetda talabalarni mutaxassislik fanlaridan chet tilida ta’lim olishlarini ta’minlash maqsadida 14 nafar chet tilini bilish bo‘yicha tegishli sertifikati bor o‘qituvchilar tomonidan 33 ta yo‘nalishda chet tilida dars o‘tishlari rejalashtirilib, ular tomonidan 32 ta fan dasturi ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Bugungi kunda universitetda 2021/2022 o‘quv yilida universitetda 16 ta fakultet, 46 ta kafedrada 714 nafar **professor-o‘qituvchilar** faoliyat yuritishmoqda. Universitetda 57 ta **bakalavriat** ta’lim yo‘nalishi, 31 ta **magistratura** mutaxassisligi va 3 ta qo‘shma ta’lim dasturi asosida (11 ta yo‘nalish) kadrlar tayyorlanmoqda. Mazkur o‘quv yilida bakalavriyat yo‘nalishi kunduzgi **13951** nafar, kechki **2928** nafar, sirtqi **8732** nafar, 2-mutaxassislik kunduzgi 48 nafar, 2-mutaxassislik sirtqi **873** nafar, magistratura yo‘nalishida **1704** nafar, jami **27315** nafar talabalar ta’lim olmoqdalar. Universitetda “Talabaning o‘zlashtirishi – professor-o‘qituvchilar faoliyatini baholashning asosiy mezoni” tamoyili joriy etilgan.

Universitet Kengashining 2019 yil 27 avgustdagи 1-sonli majlisida har semestrda talabalar o‘rtasida sotsiologik so‘rovnomalarni o‘tkazish rejalashtirilib, universitet jamoatchilik kenagashi tomonidan umumlashtirilib, kengash majlislarida muhokoma qilib borish belgilab berilgan.

Universitetning 1,2,3,4-kurs bakalavriyat yo‘nalishlarida 1349 ta, magistratura mutaxassisliklarida 171 ta ishchi fan dasturlari, malaka, tanishuv, ishlab chiqarish, pedagogik amaliyotlar bo‘yicha 295 ta ishchi fan dasturlari ishlab chiqilgan.

Dasturlar tarkibi bir xilligini ta’minlandi, keraksiz tarkibiy qismlar chiqarildi, fan dasturlarini rasmiylashtirish soddallashtirildi. Fan dasturlariga o‘qituvchilar tomonidan o‘tiladigan mavzular bo‘yicha savollar ro‘yxati hamda barcha fan dasturlariga baholash me’zonlari kiritildi. Dasturlarni namunaviy dasturlarga mosligi tahlil qilish uchun ekspert komissiyasi tuzildi va jarayon nazoratga olindi.

Universitetda talabalarni mutaxassislik fanlaridan chet tilida ta’lim olishlarini ta’minlash maqsadida 14 nafar chet tilini bilish bo‘yicha tegishli sertifikati bor o‘qituvchilar tomonidan 33 ta yo‘nalishda chet tilida dars o‘tishlari rejalashtirilib, ular tomonidan 32 ta fan dasturi ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <http://namdu.uz/ru/page/4>
2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Namangan\\_davlat\\_universiteti](https://uz.wikipedia.org/wiki/Namangan_davlat_universiteti)
- 3.



## VIII-X ASR OXIRLARIDA XORAZMDA SIYOSIY, IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOT

**Ro'zimov Asror**

Urganch davlat universiteti tarix yo'naliishi  
211- guruhi magistratura talabasi

**Annatotsiya:** Ushbu maqolada VIII-X asr oxirlarida Xorazmda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot rivojlanishida muhum rol o'ynaydigan ma'lumot haqida qisqacha tushunchalar berilgan.

**Kalit so'z:** Xorazm, axborot, ta'lim, fikr, iqtisodiy, siyosati, ijtimoiy.

Zaiflashib borayotgan Qang‘ davlatidan birinchi bo‘lib Xorazm ajralib chiqadi. Uni mahalliy afrig‘iylar sulolasiga mansub xorazmshohlar idora qila boshlaydi. III asr o‘rtalarida Xorazm davlatining poytaxti hozirgi Qoraqalpog‘istonning ellikqal'a tumanida joylashgan qadimgi Tuproqqal'a shahar xarobasining o‘rnida bo‘lgan.

Milodiy 305-yilda Xorazmshoh Afrig‘ o‘z qarorgohini Xorazmning qadimgi Kat shahriga ko‘chiradi. Kat qayta tiklanib, shoh o‘ziga yangi saroy qurdiradi. 305-yildan boshlab, Xorazmning afrig‘iy shohlari kumush tangalar zarb etganlar. Tangalarining oldi tarafiga shoh surati, orqasiga esa suvoriy surati tushirilgan. Kumush tangalarning zerb etilishi mamlakatning ichki va tashqi savdo munosabatlari mustahkamlangan. Hukmdorlar “Xorazmshoh” unvoniga sazovor bo‘lishgan. Ayrim manbalarga qaraganda “Xorazmshohlar” unvonini dastlab siyovushlar sulolasiga qabul qilgan. III asrda Xorazm hududida bir nechta mayda hokimliklar mavjud bo‘lgan. Tuproqqal’adan qo‘lida burgut qo‘ndirilgan tojdar hukmdor yoki Anqaqal'a yaqinidan esa qo‘lida lochin tutgan tojdar kishi tasviri tushirilgan tanganing topilishi, shubhasiz, hukmronlik ramzidan dalolat beradi. Xorazmda sug‘orma dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik va savdo-sotiqlar, ilm-fan, san’at, xususan, haykaltaroshlik yuqori darajada rivoj topgan. Xorazm xioniylar, kidariylar, eftallar hamda Turk xoqonligi davrida ham o‘zining siyosiy mustaqilligini saqlab qoladi. Xorazm Vizantiya va turklar bilan diplomatik aloqalar olib borgan Tarixiy taraqqiyot davomida savdo-sotiqlar munosabatlari rivojiga yoki inqiroziga siyosiy jarayonlar katta ta’sir o’tkazgan. Xususan, X-XV asrlarda Markaziy Osiyoda ro‘y bergan siyosiy jarayonlar ta’sirida markazlashgan davlatlarning vujudga kelishi (somoniyalar, g’aznaviyalar, qoraxoniylar, saljuqiyalar, xorazmshoh anushtaginiylar, Amir Temur va temuriylar davlati), ularning nafaqat Markaziy Osiyoni, balki Eron, Ozarbayjon va Yaqin Sharqning ba’zi mamlakatlarini o‘z tarkibiga qo‘shib olishi natijasida ulkan hududda siyosiy barqarorlik o‘rnatildi. Ushbu xolat o‘z navbatida ichki va tashqi savdo-sotiqlarning rivojlanishiga olib keldi. Xorazmda, ayniqsa uning Chig’atoy ulusi tarkibiga kiruvchi qismida uzoq vaqt iqtisodiy hayot hamda savdo-sotiqlar munosabatlari inqirozga duch keldi. Xullas, siyosiy jarayonlar nafaqat savdo munosabatlari taraqqiyoti, balki, shaharlarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va halokatiga ham ta’sir qildi. Xorazmda savdo-sotiqlar markazlarining vujudga kelishi va taraqqiyoti ham siyosiy jarayonlardan chetda qolmadidi. Ular o‘rta asrda Xorazmda barpo etilgan shaharlarning shakllanishiga ta’sir ko’rsatdi. Natijada vohadagi yangi shaharlar vujudga kelishi bir necha asosda ro‘y bergandi:

- davlat chegarasidagi mustahkam mudofaa qal’alari atrofida;
- sun’iy sug‘orish tizimining rivojlanishi asosida ular yaqinida hamda daryo bo‘yi vohalarida;
- qal’alarning atrofidagi qishloqlar bilan qo‘shilishi asosida;
- qulay kechuvar yoki o‘tish joylarida;
- karvon yo’llari ustida va aloqa bekatlari, karvonsaroylar atrofida.

O‘rta asrlarga oid tarixiy va arxeologik ma'lumotlarni tahlil qilgan holda Xorazmda savdo-sotiqlar bilan bog’liq urbanizatsiyaning uchta hududi mavjud bo‘lgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. The Heart of Asia / A History of Russian Turkestan and the Central Asian Khanates from the Earliest Times. F.H.Skrine and E.D.Ross. London-New York. 2005. P. 96-98.

2. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Birinchi kitob (qayta ishlangan ikkinchi nashri). –T., “Sharq”, 2010.



## AMIR TEMUR DAVLATIDA BOSHQARUV TIZIMI

Tojirova Dilnoza

7-son umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi

Tel: +998 97 299 57 82

Elektron pochta: dtayirova1982@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Temur sultanati, buyuk bobomizning qilgan zaxmatli ishlari, ilgari surgan g'oyalari va boshqa ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Amir Temur, sultanat, Movarounnahr, Xuroson, Iroq, Shom, Kavkaz, Ozarbayjon, Arab yerlari, Dashti qipchoq, Oltin O'rda, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, markazlashgan, qudratli davlat, adolat va insof.

Tariximizda Amir Temurdek ulug' siymo bor ekan, uning qoldirgan merosi va o'gitlari bugungi hayotimizga hamohang ekan, bu merosni o'rganmasdan, ta'riflamasdan, targ'ib qilmasdan haqqimiz yo'q. Tarixda ulkan sultanatlar barpo etib, dunyo hukmdorligini da'vo qilgan jahongirlar ko'p o'tgan. Ammo ular orasida adolat va yuksalish g'oyalarini shior tutib, insoniyat tamadduniga salmoqli ulush qo'sha olganlari sanoqli. Millatimiz faxri, g'ururi bo'lган sohibqiron Amir Temur markazlashgan, qudratli davlat barpo etibgina qolmay, o'z sultanatida adolat tamoyillarini o'rnata olgan hukmdor sifatida jahon tarixida munosib o'rinn tutadi.

Yevropa tarixchilari Amir Temurni Osiyodan eng so'nggi buyuk sultanat sohibi sifatida e'tirof etadilar. Buyuk sohibqiron qay tariqa bunday ulkan sultanatni barpo etdi, qaysi yo'llar bilan uni tartibga keltirdi va bunda qanday omillar qildi? Sultanat tarixini bevosita yozib borgan muarixlarning asarlari va boshqa manbalardan ma'lum bo'ladiki, yagona bayroq ostida birlashtirilgan Movarounnahr va Xuroson, Iroq va Shom, Kavkaz va Ozarbayjon, Arab yerlari, Dashti qipchoq, Oltin O'rda hududlarida ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash Amir Temur va uning ayonlaridan katta kuch va mas'uliyat talab qilgan. Ma'lumki, sohibqiron yigirma yetti davlatni o'z ichiga olgan sultanatni yetti vazir yordamida boshqargan.

Tarixiy manbalarga ko'ra mo'g'ullar hukmronligi davrida Movarounnahrda bironta ham ko'zga ko'rinarli bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmagan. Amir Temur hukmronligi davrida esa mamlakat obodonchiligi yo'lida suv omborlari, to'g'onlar qurishga, ariqlar qazishga, yangi yerlarni o'zlashtirishga alohida e'tibor berilgan. Iqtisodiy yukasalishda savdoning ahamiyati beqiyos ekanini yaxshi anglagan sohibqiron xalqaro va ichki savdo yo'llari faoliyatini kuchaytirib, bozorlar, rastalar va timlar, ustaxonalar barpo etib, tijorat va hunarmandchilik taraqqiyotini kafolatlagan. Amir Temur shirvonshoh Shayx Ibrohim I ning mamlakat iqtisodi va madaniyatini tiklashga qaratilgan tadbirlarni qo'llab-quvvatladi. Shu sabali tuhfa qabul qiluvchilar: "To'qqizinch qul qani?" deb so'radilar. Shayx Ibrohim: "To'qqizinch men o'zim qurbanman!" - dedi. Bu xitob Temurga yoqib qolib, Shayx Ibrohim uning qalbidan yuqori martabani egalladi va u Shayx Ibrohimga "Yo'q, sen menin farzandimsan va o'sha yerlarda menin xalifam va e'timodli kishimsan", -dedi. U Shayx Ibrohimga qimmatbaho xil'atlar kiygizib, o'z osoyishtaligiga erishganidan mamnun holatda uni o'z mamlakatiga qaytardi"

Sohibqiron o'z "Tuzuklar"ida shunday deydi: "Adolat va insof" bilan Tangrimning yaratgan bandalarini o'zimdan rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm-shafqat bilan, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Hayr-ehson ishlарim bilan odamlarning ko'nglidan joy oldim. Fuqaro va qo'l ostimdagilarga rahmdillik qildim, askarlarimga in'omlar ularashdim. Zolimdan mazlumning haqqini oldim. Zolim yetkazgan moddiy va jismoniy zararlarni isbotlaganimdan keyin, uni shariatga muvofiq odamlar o'rtasida muhokama qildim va bir gunohkorning o'rniga boshqasiga jabr-zulm yetkazmadim".

Amir Temur barpo etgan qudratli sultanatda arz-hollarga, ya'ni fuqarolar murojaatlariga adolatli munosabatning shakllanganini ijtimoiy barqarorlik omillaridan biri sifatida baholash mumkin. Samarqand atrofida barpo etilgan mashhur bog'larning hovlisida qasrlarning har birida turli ko'rinishda qabulxonalar tashkil etilgan. Solnomalarda bu qabulxonalar "borgoh", ayrim adabiyotlarda "arz va shikoyatlar mahkamasi" deb yuritilgan.

Hukmronlik davrining aksariyat qismi safarda o'tgan sohibqiron aholining turmush tarzi, yashash sharoiti, mulozimlarning ularga munosabati, elning haq-huquqlariga rioya qilinishini aniqlash uchun sayyor qabullar tashkil etgan. Ularda boshqa hukmdorlar davlatida uchramaydigan



bir holat kuzatiladi: bunday marosimlarda ulamoning ishtiroki shart bo‘lgan. Sohibqironning safar vaqtidagi qabuli birmuncha ixchamlashgan tarzda tashkil etilgan bo‘lib, quyidagicha namoyon bo‘lgan: Xirovul amiri Temurning qarshisida o‘tirardi. Ichki, xususiy yasovul, ya’ni kichik lavozimdagи saroy xizmatchisi esa chodir yoki xona eshigi oldida, taxt poyasining to‘g‘risida tik turardi.

Amir Temur qabulga kelganlarni diqqat bilan tinglash, ularni sinchkovlik bilan kuzatish, gaplari haqiqatga mos kelish-kelmasligini taxlil etib, rost va yolg‘onni ajrata olishdek noyob xususiyatga ega bo‘lganini muarrix ibn Arabshoh shunday ta’riflagan: U bir gap eshitganda dalil talab qiladigan, zimdan qarash va ko‘z ishoratlarini sezadigan idrokli qilish edi. U sinchkov bo‘lib, har bir ishoratdan ogoh kishi bo‘lib, yuz beradigan barcha ishni ko‘rib-bilib turar edi. Uning nazaridan aldovchining aldrovi yashirinib qolmas va firibgarlarning firibi o‘tmas, o‘z farosati bilan haqgo‘y va yolg‘onchini ajratar edi”.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur sultanati mafkurasining umuminsoniy qadriyatlarga tayangani, bag‘rikenglik g‘oyalari ustuvorligi ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasbetgan. Sultanatda ma’muriy tizim va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar mutanosibligi uning chekka hududlarida ham qonunlarning bir xilda ijro etilishini ta’minlagan. Bu esa, o‘z navbatida, barqaror taraqqiyot va ma’naviy-ma’rifiy yuksalish davrini boshlab bergen.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotning poydevori. - T.: «Sharq», 1997.
2. N.N.Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.: TDPU. 2003.
3. Asqarov A. O‘zbekiston mustaqilligi sharoitida O‘zbekiston tarixi fanining vazifalari.- “O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar” 1992. № 7-8.
4. Gaffarov YA, Gafforova M. O‘zbekiston xalqlari O‘zbekiston tarixini o‘qitish usullari. T., 1996.



## ҚҮНФИРОТ ШАҲРИДАГИ АлЛАНИЯЗ ҚОЗИ ҚОЗИХОНАСИ ТАРИХИДАН.

Ораев Баймурат

Қорақалпоқ ижтимоий фанлар илмий-тадқиқот институти.

**Ф.И.О.** Ораев Baumurat Abdreshitovich

**Эл. Почта:** oraev@inbox.ru

**Тел.:** +998 992441822

**Аннотация:** Мазкур илмий ишда муаллиф асосан Қўнғирот шаҳрида жойлашган Алланияз қози қозихонаси, зиндан ва қамоқхона буйича манбаларини қуллай ўтириб, Қўйи Амударё буйидаги қозиларининг суд ишларини олиб бориши тарихини ёзишга ҳаракат қилинган.

**Калит сўзлар:** Қозилар, қозихона, Қўнғирот, зиндан, қамоқхона, суд жараёни, шариат суди

Қўйи Амударё буйларида тарихий-археологик ёдгорликларидан бошқа бинолар қатори қозихона, зиндан, қамоқхоналар ҳам топилган. Шундай қозихоналарнинг энг қадимгиси Кат шаҳрида бўлган. X асрда яшаган Ал-Макдисий кундузи масжидта қозининг суд ишларин олиб бораётганини ва иш пайтидаги фиқҳшунос олимларни кўрган.

Амударё буйидаги Қўнғирот шаҳрида қозилар шажараси бўлиб, аксарият ҳолларда қозилик отадан-болага мерос бўлиб ўтган. Алланияз қозининг ўғли Мадияр (Бази манбаларда Мадрейим О.Б.) ҳам қози бўлган. Хивада қозикалон бўлган Бобоохун Салимовнинг аждодлари Қўнғиротда қозилик қилгани ҳақида айтилади.

Қўнғирот шаҳрида маҳаллий аҳоли орасида Алланияз қозининг уйи деб аталган қозихона бўлган. Қозихонада суд ишларини олиб борган. Бу қозихона Қўнғирот шаҳрининг бозори ёнида жойлашган. XIX аср охири XX аср бошларида Қўнғиротда бир нечта қозилар бўлиб, шуларнинг бири Алланияз қози бўлган. Унинг қозихонаси билан бирга савдо дукони ва ховузлари бўлган. Қозилар давогарларнинг ҳисобидан яшаган, шунинг учун ҳам ариза қанчалик чузилса, мураккаблашса қозиларнинг фойдасига хизмат қилган.

Қозихонадан узок бўлмаган жойда зиндан жойлашган. Шаҳарнинг бошқа жойини сув олса ҳам бу жойга сув чиқмаган. Зиндан қудуқга сингари чукур этиб қозилган, унинг ичи тош билан доира шаклда ўрилган. Эшиги қўйма темирдан бўлган. Тепаси темир тўрлар билан ёпилиб, йуловчиларга ичи кўриниб тўрган. Бундан мақсад айборларни йуловчилар кўриб, ёмон ниятли инсонларнинг ўз фикридан қайтиб инсобга келишига тарбиялаш бўлган. Шунинг билан бирга айборларнинг яқинлари, қариндошларининг ҳам халқдан уялишини, жазолашни таъминлаш бўлган. Ҳозирда бу зиндан кўмилиб қолган.

Бундан ташқари Қўнғирот шаҳрининг «Ханжап»нинг буйида қамоқхона бўлган. Шаҳар ҳокими ва қозиларнинг хукми билан ҳаётда, жамиятлик ишда, хон режимини бузганлар жазоланган. Қўнғирот қамоқхонаси қамишдан қурилиб, ташки томони лой билан сувалган жой бўлиб, эшиги шимол томонга қараган. Қамоқхонанинг тепасида шифти бўлган. Дераза ўрнига майда таёқчалардан тўқилган панжара ўрнатилган. 1899-йили келган М.Н.Чернишевский Қўнғирот шаҳрида қамоқхонанинг бор эканлигини ёзди.

Адабул қазо-хукм юритиши одоблари мавзусига боғишлиланган соҳа бўлиб, унда қози қандай бўлиши, ўзини қанақа тутиши кераклиги, хукмни қандай юритиши, бошқа қозилар ва аҳоли билан муомаласи, қозихонанинг қаерда бўлиши, қандай бўлиши, қози ва қозихона ишчилари фаолияти каби масалалар таҳлил этилган. Бу борадаги илк асарни Абу Юсуф таълиф қилган бўлиб, «Адабул қози» деб аталган. Уни Бишр ибн Валид Марисий (IX эсир) ҳам да Мухаммед ибн Симао (VIII-IX эсир) шогирдлари ёзид олиб, ривоят қилганлар.

Қозихоналар белгиланган тартиб буйича қурилиб, у сув босмайдиган, ёнғинга хавфсиз ўрин бўлган, масжид ёки бозорга яқин жойда жойлашган. Алланияз қозининг қозихонаси бозорга яқин жойда бўлган. У унчалик катта бўлмаган. Ташки қўриниши оддий аҳоли жойларидан ажralиб турган. Унда ҳужжатлар мўхр, қозининг иш пайти киядиган маҳсус кийимлари бўлган. Кўчага киядиган кийимларидан суд жараёнида киядиган кийими фарқ қилган.

Қозихона З хонадан иборат бўлган. Биринчи хонада катиб (девон) ўтириб, у арзашикоятларни қобил қилиб ўтирган. Иккинчи хонада қозининг қабулловхонаси бўлган.



Учинчи хонада суд ишларини олиб борган. Қозидан ташқари шариатга тегишли ҳамалдарлар: муфти, миршаб, катиб бўлган. Тергов пайтида қийнаб азоб бермаган, Куръани Каримни ушлаб ҳақиқатни айтишга қасам ичтирган.

Афсуски, бизнинг давримизгача бу қозихона бутунлигича етиб келмаган. Факат рус саёхатчиларининг ёзма манбалари ва халқ орасида оғизаки манбаларда орқали бизга маълум.

### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Есбергенов X. Қоңырат тарийхый ҳәм мәдений естеликлери. Нөкис, 1993. 25-39 бет.
2. Аминов X, Примов С. Ҳанафий фиқхи тарихи манбалари ва истилоҳлари. «Movarounnahr» Тошкент, 2017. 88 бет.
3. Л.Жукова, Л.Левтеева. Дневник участника экспедиции 1899 г., занимавшейся изучением возможностей прокладки железнодорожной линии Александров - Гай - Чарджоу. Вестник Каракалпакского отделения Академия Наук Узбекистан №4(54) 1973. Стр.75-84.
4. Муаллифнинг дала ёзувлари, 2021.



**UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMI TARIX DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING  
TAFAKKURINI O‘STIRISH VA ULARDA MALAKA HAMDA KO‘NIKMALAR  
HOSIL QILISH USULLARI**

**Qirg’izova Tursinoy**  
Norin tumani 4-maktab tarix fani o’qituvchisi

**ANNOTASIYA:** Bugungi kunda uzlusiz ta’lim tizimining asosiy boqichlaridan biri – umumi o’rta ta’limning V – IX sinflarida tarix o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning tafakkuri, nutqi, ijodiy qobiliyatları, malakalari hamda ko‘nikmalarini ma’lum bir maqsadga qaratgan holda, tizimli sur’atda o‘stira borish masalalari ko‘rib chiqilib, amaliy jihatdan hal etilib borilyapti ushbu maqolada shu borada fikrlar keltirilgan.

**TAYANCH SO‘ZLAR:** tarix, malaka, tarixiy bilim, tarixiy dalillar, ta’lim jarayoni, milliy g’oya, vatanparvarlik, tarixiy materialllar

O‘quvchilarning tafakkurini va mustaqil fikrlash qobiliyatini tizimli sur’atda, ya’ni ta’limning uzlusizligi tizimida o‘stira borish, ularning malakalari va ko‘nikmalarini shakllantirish tarix o‘qitishning o‘z oldiga qo‘yan maqsadlaridan biri hamda tarixiy bilimlarni o‘zlashtirib olishning zarur shart -sharoiti hisoblanadi. Tarixiy bilimlarni egallab borish jarayonida o‘quvchilarning tafakkuri, malaka va ko‘nikmalarini o‘stira borish masalalari ko‘pgina psixologlar, metodistlar hamda amaliyotchi o‘qituvchilar e’tiborini o‘ziga tortib kelmoqda. Bugungi kunda uzlusiz ta’lim tizimining asosiy boqichlaridan biri – umumi o’rta ta’limning V – IX sinflarida tarix o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning tafakkuri, nutqi, ijodiy qibiliyatları, malakalari hamda ko‘nikmalarini ma’lum bir maqsadga qaratgan holda, tizimli sur’atda o‘stira borish masalalari ko‘rib chiqilib, amaliy jihatdan hal etilib borilyapti. V – IX sinflar “Tarixdan hikoyalar”, “Tarix”, “Jahon tarixi” hamda “O‘zbekiston tarixi” hamda o‘rta maxsus ta’lim tizimi uchun “Jahon tarixi” hamda “O‘zbekiston tarixi” darsliklarida o‘quvchilarning tafakkuri, nutqi hamda malakalarini o‘stira borish vazifalari hisobga olingan. Ulardagi materialning bayon qilinish va umumlashtirilish xususiyati, tanlangan rasmlar va hujjatlarning matnlari, savol va toshpiriqlar tizimi o‘quvchilarning zehnini o‘stira borish uchun bosqichma – bosqich tizimli sur’atda yordam berishga xizmat qiladi Ko‘nikmalar haqida bir xil fikrlovchi namoyandalar ko‘nikmalarni mashq qilish usulini avtomatlashtirilgan darajada egallab olish deb yoki biror ishni bajara olish uchun mashq natijasida puxta bilib olingan malaka deb va ayni bir vaqtida o‘quvchilarda bilganlarini tatbiq eta bilish malakalarining o‘sса borishidagi eng yuqori bosqich deb hisoblaydilar. Malaka, o‘z navbatida, to‘liq nihoyasiga yetmagan ko‘nikma, hosil qilishdagi muhim bir bosqich deb ta’riflanadi. Malakalar haqida bir xil fikrlovchi namoyandalar esa malakani o‘z bilganlarini tatbiq etish jarayonida yuzaga keladigan vazifalarni hal etish usullarini o‘rganib olishdagi eng yuqori bosqich deb tushunadilar. Shunga ko‘ra, malaka turli sharoitlarda tushunib anglab va aniq bajariladigan harakatlarga tayyorlik deb ta’riflanadi. Malaka bilim asosida va mashq qilish natijasida hosil qilinadi. Masalan, o‘quvchilarning taqqoslash malakasi, taqqoslash paytida solishtirib ko‘riladigan muhim tomonlarni ular mustaqil suratda belgilay oladilar va bu ishni o‘zları o‘rganayotgan tarixiy hodisalar hamda tarixiy jarayonlarga nisbatan tatbiq etgan holda bajara oladilar, degan ma’noni bildiradi. Bu nuqtai nazar namoyandalar ko‘nikmani nihoyat darajada avtomatlashib ketgan eng oddiy malaka (masalan, sanalarni yozib borish ko‘nikmasi, xaritadan tarixiy – geografik ob’yeqtlni to‘g’ri ko‘rsatish ko‘nikmasi) deb qaraydilar. Malakalar ko‘nikmalarga qaraganda ko‘proq onglilik darajasi bilan farq qiladi Tarix o‘qituvchisi o‘quvchilarini milliy g’oyasi va vatanparvarlik nuqtai nazardan har bir ijtimoiy hodisani uning vujudga kelishi va rivojlana borishida, boshqa hodisalar bilan bog‘lanishi hamda o‘zaro munosabatlarida olib qarashga, hodisalarning sinfiy mohiyatiga kira bilishga, tarixiy jarayonning umumi oyektiv qonuniyatlarini tushunishga o‘rgatishi lozim. Mustaqil O‘zbekistonimiz umumi o’rta maktablari o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni o‘stirish ularni ilmiy asosda tarixni tushunishga o‘rgatish bilan bog‘langandir. Bu vazifalar VI – VII sinflarda tarix fanini o‘qitishda ham o‘quvchilar uchun og‘irlik qilmaydigan darajada qo‘yiladi. Uzlusiz ta’lim tizimida umumi o’rta ta’limdan keyingi bosqich hisoblanadigan o‘rta maxsus ta’lim tizimida o‘quvchilarning bilimlari tobora chuqurlasha borishi va ko‘paya borishi bilan, ularning tafakkurini o‘stira borishga qaratilgan vazifalar ham murakkablasha boradi va bu bosqichda tarix



kursini o‘qitishda o‘quvchilarning fikrlashga asoslangan malaka va ko‘nikmalarini hosil qila borish vazifalari — bu, tarixiy bilimlarni mustaqil suratda topib, tizimga solib, ularni amalda ttabiq eta bilishga o‘rgatish, pirovardida esa, o‘quvchilarni o‘tmishdagi hamda hozirgi zamondagi ijtimoiy hodisalarga nisbatan ilmiy nuqtai nazardain yondoshishga o‘rgatish demakdir. Bugungi kunda uzlusiz ta’limning har ikkala tizimida ham o‘qitiladigan tarix fanlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, tarix fanini o‘qitish davomida hosil qilina boradigan malakalar guruhlarini shartli ravishda quyidagilarga ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Tarixiy bilim beruvchi manbalarni tahlil qilish, tarixiy voqealar hamda hodisalardagi eng asosiy va muhim narsani, ularning muhim belgilari va bo‘g‘lanishlarini ajratib chiqish, tarixiy tushunchalarga ta’riflar berish malakalari;

2. Tarixiy bilim beruvchi manba mazmunini mantiqiy jihatdan bir necha qismga ajratish malakalari;

3. Tarixiy dalillar va jarayonlarni o‘z doirasida qarab chiqish hamda vaqt jihatidan ular o‘rtasidagi nisbatni aniqlash, xronologik va sinxronistik jadvallar tuzish malakalari;

4. Tarixiy hodisalarning joyini aniqlash, tarixiy xaritani «tilga kirgizish», undagi izohlar va shartli belgilardan xatosiz foydalanish, kontur xaritani tarixiy mazmunda to‘ldirish va shu kabi malakalar;

5. Tarixiy voqealar, hodisalarni taqqoslash, ularning umumiy va alohida xususiyatlarini topish malakalari;

6. Tarixiy dalillarni tahlil qilish va taqqoslash asosida, induktiv hamda deduktiv xulosalar chiqarish usulidan foydalangan holda yakunlar (shu jumladan, baho berishga doir yakunlar ham) yasash, yakunlarni, berilgan baholarni asoslab berish, tarixiy dali llar va umumiy xulosalarga tayangan holda to‘g‘ri isbotlay olish malakalari;

7. Tarixiy materialni og‘zaki yoki yozma tarzda bayon eta bilish (izchil tartibda, obrazli qilib, eng asosiy va muhim narsani ajratib ko‘rsatgan holda va hokazo

8. Axborotlar, dokladlar, referatlar, siyosiy yangiliklar tayyorlash hamda ularni o‘tkazish malakalari;

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, uzliksiz ta’lim tizimining o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim tizimi bosqichlarida tarix darslarida o‘quvchilarda malaka va ko‘nikmalarini hosil qilinishi natijasida sog‘lom e’tiqodli, o‘tkir hissiyorli, yuksak didli, o‘z xatti – harakatlariga javob bera oladigan shaxsning ma’naviy dunyosini shakllantirish ko‘zda tutiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. T., 6-T; 1998, 332 – bet.
2. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqi asoslari. – T.: “Fan”, 2006.-B.23
- 3.Sa’diyev A. Fuzailova G. Xasanova M. “Tarix o‘qitish metodikasi” T. 2008.



**YOSHLAR ONGIGA BOY MEROSIMIZ HAQIDA SINGDIRISH, HAMDA ULARNI  
AVAYLAB – ASRASHNI O’RGATIB BORISH**

**Raximboyeva Gulxumor Rustamovna**

Xorazm viloyati Yangibozor tumani  
8 – maktab tarix fani o’qituvchisi

**Iskandarova Nilufar Rustamovna**

Xorazm viloyati Yangibozor tumani  
8 – maktab tarix fani o’qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada yoshlar ongiga boy merosimiz haqida singdirish, hamda ularni avaylab – asrashni o’rgatib boorish haqida yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** madaniy meros, masjid, madrasa, qadimiy obida.

Mustaqil O’zbekistonimizning turli sohalaridagi o’zgarishlar jamiyatimiz oldida o’sib kelayotgan yosh avlod bilimi, ma’naviyati, ilmiy dunyoqarashini boyitishning samarali vositalarini izlash zaruriyatini qo‘yilmoqda. Yoshlarimizdan ular egallagan bilimlarni jamiyatimiz ravnaqi yo‘lida qo‘llay bilish talab etilmoqda. Yosh avlodning istiqlol g‘oyalari asosida tarbiyalanib, ulug‘ ajdodlarimizga munosib voyaga etishlari, eng avvalo ularning bugungi olayotgan saboqlari va bilimiga bog‘liq.

Mamlakatimizda ta’lim – tarbiya jarayonini isloh qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlardan biri ham o‘quvchilarining mehnat tarbiyasi va ta’limini yanada yaxshilashdan iboratdir. Shu boisdan ham talabalarga ta’limga ongli munosabat va uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini tushintirish hamda har bir o‘quvchida o‘z kuchi va qobiliyati bilan xalq farovonligini oshirishga hissa qo‘sish ishtiyoqini uyg‘otish – pedagogik jamoaning vazifalaridan hisoblanadi. Qarshi shahridagi me’moriy obidalarning yosh-avlodga ma’naviy-madaniy ta’siri shundan iboratki. Unib –o’sib kelayotgan yoshlar birinchi navbatda, bu yodgorliklar haqida bilimga ega bo’lishlari zarur.

Shundan keyingina ular boy merosimizni biz uchun qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini anglab yetishadi. Holbuki, bunda biz pedagoglarning hissasi juda ham katta. Chunki yoshlarga bilimlarni yetkazib bera olsakgina, ularning ma’naviy olami boyib boradi va o‘z mevasini beradi. Qarshi shahrida ko‘pgina o‘ziga xos yuksak qadamjolar mavjud. Bular “Odina” jome’ masjidi, “Ko‘kgumbaz” masjidi, “Xoja Jarroh” ziyoratgohi shular jumlasidandir. Ota-bobolarimizdan qolgan bu boy merosni o‘quvchi – talabalar ongiga shunday singdirish kerakki, nafaqat ziyorat qilib, tarixini o‘rganib, balki asrab- avaylashni ham o‘z oldiga maqsad qilib olishlari lozim. Shunday mutaxassis kadrlar tayyorlash kerakki bu tarixiy obidalarni jahonga tanitsin. Xuddi “Registon”, “Oqsaroy” kabi butun dunyoga mashhur bo’lsin. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q” degan ibora zamirida olam ma’no anglashimiz mumkin. O’zbekiston hududida tarixiy obidalar va uzoq tarixga ega bo’lgan qadamjolar ko‘p. Mana shular haqida yoshlarga ma’lumot yetkaza olishimiz kerak. Ularni ziyorat qildirib, ajdotlarimiz bosib o’tgan ulug‘ yo’llarni, ularning qudratini his qilishlariga imkon yaratib berishimiz darkor.

Istiqlol tufayli O’zbekistonda madaniy merosga nisbatan munosabat ijobiylar tomoniga o‘zgardi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Shahrisabz kabi qadimiy shaharlarning qutlug‘ yubileyлari o‘tkazilib, ulardagi umumbashariy madaniyatning bebaho durdonalari bo‘lgan me’moriy obidalar qayta tiklandi. Xuddi shunday navbat o‘zining boy tarixi va madaniy merosiga ega bo’lgan Qarshi shahriga ham yetib keldi va shahar yubileyi nishonlandi.

Qarshining hozirgi kungacha saqlangan me’moriy yodgorliklari – “Ko‘kgumbaz”, “Qashqadaryo ko‘prigi”, “Qarshi hammomi”, “Sharofboy”, “Bekmurodboy”, “Qilichboy”, “Abdulazizboy” madrasalari, “Odina jome” masjidi, “Qarshi sardobasi” (6-rasm), “Abu Ubayda bin al-Jarrah” ziyoratgohi va “Xonaqo” masjidi majmuasi hukumatimiz va xalqimiz ardog‘ida.



**1-rasm. “Qarshi sardobasi”**

Qarshi shahridagi “Ko‘kgumbaz” masjidi, Qashqadaryo ustiga qurilgan g‘ishtko‘prik, qadimiy hammom va madrasalar o‘zbek me’morchiligining noyob namunalaridan bo‘lib, ularning har biri o‘z tarixiga ega. Bu obidalar O‘zbekistondagi ko‘plab tarixiy-madaniy yodgorliklar kabi yuksalish-u ulug‘vorlik davrlarini ham, etiborsizlik va tahqirona tazyiqlarni ham, vayrongarchilik va tushkunlik holatlarini ham boshidan kechirgan.

**Foydalanaligan adabiyotlar:**

1. Isamiddinov.M va Sulaymonov R. “Naxshab”. Toshkent “Manaviyat” 2004y.
2. Rustam Sulaymonov “Naxshab—unutilgan tamaddun sirlari”.



**МЕ’МОРЧИЛИК ТURLARI, QARSHI МЕ’МОРЧИЛИГИНИ О’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Xolmatova Sevara Abduqahhorovna**

Farg’ona viloyati Farg’ona tumani  
21 – maktab tarix fani o’qituvchisi

**Yo’ldashev Muhiddin**

Farg’ona viloyati Farg’ona tumani  
21 – maktab tarix fani o’qituvchisi


**Annotatsiya:** ushbu maqolada tarix fanidan me’morchilik turlari, qarshi me’morchiligini o’ziga xos xususiyatlari haqida yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** me’morchilik, obidalar, qadimiy madaniy boyliklar.

Qarshi me’morligining mahalliy xususiyatlari, ayniqsa, madrasalar qurilishida nomoyon bo’ladi. Yuqorida ko’rib chiqilgan madrasalar XVIII asrga va XX asr boshlariga xos bo’lib, bu davrda Qarshi Buxoro xonligining ikkinchi yirik shaxri bo’lgan, poytaxt me’morlik maktabining kuchli ta’siri ostida rivojlangan. Bu yerda buxoracha inshootlarga xo such qatlamlı devorlar; hovli ichki burchaklarining kesmasi; bino burchaklarida burjsimon guldasta shakllari; binolari ostidan g’isht platformalar; minoralar shakli va me’moriy yechimi qo’llangan. Biroq Qarshi madrasalari, Buxoro me’morlik maktabining viloyat shoxobchasi bo’lgani holda, o’zining mahalliy xususiyatlari bilan ham ajralib turgan. Chunonchi, Qarshi madrasalarining bosh fasadi yopiq bo’lgan, ya’ni ular samarqandcha usulda – ravoqsimon lodjiyalarsiz qurilgan (Bekmir va Abdulaziz madrasalari bundan mustasno);; bu yerdagi guldastalar va fonuslar shakli buxorocha o’lchamlardan farq qilgan, Qarshida Burxorda kam uchraydigan, biroq XVI asrdayoq ma’lum bo’lgan usul-binoning qolganqismi bir qavatli qurilishi ko’p uchraydi.

Bu madrasa, masjidlarni joylashuvi quydagi xaritada keltirib o’tilgan. Ayrim madrasalarning joylari noaniqligicha qolmoqda. Izlanishlar davom ettirilsa, albatta ularni ham geografik o’rnini aniqlash mumkin. (5 -rasm)





5-rasm. Qarshi shahri tarixiy obidalari xaritasi.

Qarshi shahrining o'rta asrlarga oid me'morli qiziqarli, o'ziga xos, shu bilan birga, Markaziy Osiyo me'morligining kam o'rganilgan qismini tashkiletadi. Bu yerda saqlanib qolgan noyob, qadimiylar va yirik inshootlar – XVI asrda qurilgan Ko'kgumbaz namozgoh masjidi, hammom va Qashqadaryo ustiga qurilgan ko'priq mahallining yuksak mahoratidan dalolat beradi.

Qarshi jahonning qadimiylaridan biridir. U dunyo tarixi va madaniyatida alohida o'r'in tutadi. Bu haqiqat Qarshi shahrining 2700 yilligi tantanalarida ishtirok etish haqida qaror qabul qilgan kun: YUNESKO Bosh konferentsiyasining 32-sessiyasida qayd etildi. Bu qutlug' sana munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov maxsus qarorga imzo chekdi. Davlatimiz rahbarining g'amxo'rliqi bilan qadimiylarini Qarshi shahri yanada yasharib ketdi. Bu yerda tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash va tiklash ishlari yo'lga qo'yildi.

Keyingi yillarda bu yerda ko'plab me'moriy yodgorliklar, jumladan, XV asrda qurilgan "Ko'kgumbaz", "Xoja Ubayd Jarroh" masjidlari, "Qarshi ko'prigi", "Abdulaziz", "Bekmir" madrasalari kabi ko'plab me'moriy obidalar qayta ta'mirlandi. Mustaqillik yillarda shu zamindan yetishib chiqqan, eski tuzum davrida muborak nomlari tilga ham olinmagan buyuk allomalarimizning xotirasini tiklash, ularning hayoti va faoliyati bilan bog'liq tabarruk joylarni obod etish, ma'naviy merosini chuqur o'rganish borasida ham ibratli ishlarni qilinmoqda. Respublikada birinchilardan bo'lib Qarshi shahrida joriy etilgan mahalla tizimida yangicha ish yuritish uslubi o'ziga xos yangilik bo'ldi. Tinchlik, osoyishtalikni saqlash, havfsizlikni ta'minlashda bu boshqaruv usulining afzalliklari nihoyatda ulkan ekanai tajribada o'z isbotini topdi. Yosh avlodning zamonaviy bilimlarni egallab, madaniylar va ma'rifiy ongini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qarshilik yoshlar muqaddas qadamjolar masjid-u-madrasalarni o'rganishni, ularni asrab-avaylashni o'z oldiga maqsad qilib olishlari zarur va shart.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Isamiddinov M va Sulaymonov R. "Naxshab". Toshkent "Manaviyat" 2004y.
2. Rustam Sulaymonov "Naxshab—unutilgan tamaddun sirlari".

# **ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 3-ҚИСМ**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.05.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000